

“Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik!” hamda “O‘zbekiston yoshlari birlashaylik!” shiorlari ostida kontsert o‘tkazildi



“Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik!” hamda “O‘zbekiston yoshlari birlashaylik!” shiorlari ostida kontsert o‘tkazildi

Termiz shahar “Alpomish” MFYdagi San‘at saroyida joriy yilning 28 may kuni soat 19:00dan 21:00ga qadar “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik!” hamda “O‘zbekiston yoshlari birlashaylik!” shiorlari ostida mahallalar aholisi, yoshlar va keng jamoatchilik vakillari ishtirokida ma‘naviy-ma‘rifiy kontsert dasturi o‘tkazildi. Tadbirda mahallalarining fuqarolari, oliy ta‘lim muassasalarining talabalari, akademik litsey va umumta‘lim maktablarining bitiruvchi o‘quvchilari, taniqli san‘atkorlar va hamkor tashkilotlar, OAV xodimlari ishtirok etishdi. Tadbir jarayonida shahardagi umumta‘lim maktablari o‘quvchilarining ko‘rgazmali chiqishlari namoyish etildi. Shuningdek,

san'atkorlar tomonidan badiiy chiqishlar ijro etildi. She'rlar va kuy-qo'shiqlar tadbir ishtirokchilariga ko'tarinki kayfiyat ulashdi. Ayniqsa, mahoratli aktyor va aktrisalarning ijro etgan rollari xalq olqishlariga sazovor bo'ldi. Respublikadan taniqli O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Dilafruz Xayitmetova, O'zbekiston davlat drama teatri aktrisasi Izroxat Muratova, Temur Raxmonberganov, O'zbekiston davlat filarmoniyasi xonandasi Maysara Raximova hamda viloyat drama teatri xonandasi Nozigul Haitovalar ishtirok etishdi. O'tkazilgan tadbirda san'atkorlar tomonidan ijro etilgan badiiy chiqishlar tadbir ishtirokchilariga yanada xush kayfiyat ulashdi.

